




TEST TIZIMIGA KIRISH UCHUN KO‘RSATMALAR



Imtihonlar Agentlikning **test.uzbmb.uz** sayti orqali o‘tkaziladi. Bunda birinchi navbatda talabgorning shaxsi tasdiqlanadi. Buning uchun talabgor dasturga shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritib, keyingi oynada veb-kameraga qarab, “Tanib olish” tugmasini bosadi. Talabgorning shaxsi tasdiqlansa, tizimga kirishga ruxsat beriladi. “Imtihonni boshlash” tugmasi bosilgandan so‘ng imtihon boshlanadi.



Test tizimi oynasi bo‘yicha tanishtiruv

Familiyasi, ismi, otasining ismi

0 : 56 : 58

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20 21 22 23 24 25 26 27 28 29 30 31 32 33 34 35 36 37 38 39 40 41 42 43 44 45 46 47 48 49 50

A B C D

Bir-biriga zid ma’noli bo‘lmagan so‘zlarni toping.

A) shodlik – g‘am
B) yosh – qari
C) kar – soqov
D) mehr – qahr

Savolga e’tirozim mavjud

Oldingisi Keyingisi

- Test sinovida talabgorlarga **50 ta test topshirig‘i** va ularni ishlash uchun **120 daqiqa vaqt** beriladi.
- Ekranning yuqori qismida **test sinovi tugashiga qolgan vaqt kamayish tartibida ko‘rsatib turiladi**.
- Ekranning chap qismida test topshirig‘i va **4 ta muqobil javob varianti** berilgan bo‘lib, talabgor to‘g‘ri javobni o‘ng tomondagi “A”, “B”, “C”, “D” harflaridan birini tanlash orqali belgilaydi.
- Belgilangan vaqt ichida istalgan test topshirig‘iga o‘tish va tanlangan **javobni o‘zgartirish** mumkin.
- Javobi belgilangan test topshiriqlari **och ko‘k rangdagi doiracha shaklida**, ayni paytdagi test topshirig‘i **ko‘k rangdagi to‘rtburchak shaklda**, hali ishlanmagan test topshiriqlari **shaksiz, oddiy raqam bilan ko‘rsatilgan** bo‘ladi.
- Test topshirig‘iga “**Savolga e’tirozim mavjud**” tugmasini bosish orqali e’tiroz bildirish mumkin.
- Ekranning o‘ng yuqori qismida “**Yakunlash**” tugmasi joylashgan bo‘lib, yakunlash tugmasi bosilganda talabgor belgilagan javoblar ko‘rsatilib, **tasdiqlash** so‘raladi. Javoblar tasdiqlanishi bilanoq talabgor nechta test topshirig‘iga to‘g‘ri javob bergani va **test sinovida to‘plagan bali** ko‘rsatiladi.

IMTIHON OLDIDAN TALABGORLAR UCHUN YO‘RIQNOMA

Ushbu yo‘riqnoma imtihon davomidagi muhim tartib-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Iltimos, uni diqqat bilan o‘qing. Agar nimanidir tushunmasangiz, Bilim va malakalarni baholash agentligi vakilidan so‘rang. **Ushbu tartib-qoidalariga rioya qilmaslik imtihondan chetlashtirishga sabab bo‘ladi.**

☒ **Zarur:**

- imtihon jarayoniga o‘z vaqtida shaxsni tasdiqlovchi hujjat (Pasport, ID-karta, yangi haydovchilik guvohnomasi) bilan kelish;
- guruh nazoratchilari tomonidan barcha ko‘rsatmalarga va yo‘riqnomalarga to‘liq amal qilish;
- o‘zi bilan suv, ko‘zoynak, zaruriy dori vositalarini olib kelish;
- barcha savollarga belgilangan vaqt ichida javob berish;
- test yakunlangandan keyin ishtirok etganlik to‘g‘risidagi qaydnomaga imzo qo‘yish.

☒ **Mumkin emas:**

- imtihon jarayonida elektron qurilmalardan va adabiyotlardan foydalanish (telefon, aqlli soat, kalkulyator va hokazo);
- kompyuter ekranida test oynasini yopish, boshqa fayllarga murojaat qilish;
- ko‘chirish, ko‘chirtirish, boshqa kompyuterlarga qarash;
- baland ovozda o‘qish yoki boshqa talabgorlar bilan gaplashish;
- guruh nazoratchisi ruxsatisiz xonani tark etish.

Qo‘lingizni ko‘taring, agar:

- talabgorning shaxsiy ma’lumotlari kompyuter ekranida noto‘g‘ri aks etgan bo‘lsa;
- imtihon jarayoni bilan bog‘liq savollar bo‘lsa;
- test savollari 50 tadan ko‘p yoki kam bo‘lsa;
- test savollariga e’tirozingiz bo‘lsa;
- kompyuter, internet, elektr bilan bog‘liq nosozlik kuzatilsa;
- sog‘lig‘ingiz bilan bog‘liq muammolar bo‘lsa.

01 MUROJAAT QILISH

Siz imtihon davomida **KORRUPSIYA** bilan bog‘liq holatlarga duch kelsangiz, bu haqda **(95) 199-19-14** raqami orqali bizga xabar berishingiz mumkin.



Murojaat uchun:
(95) 199-19-14



02 KUZATUV TIZIMI

Imtihonlarni shaffof va adolatli tashkil etish maqsadida imtihon o‘tkaziladigan barcha binolar Agentlikning **video.uzbmb.uz** sayti orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri translyatsiya qilib boriladi.



03 E‘TIROZ BILDIRISH

Talabgorlar “**Savolga e’tirozim mavjud**” tugmasini bosish orqali test topshirig‘i mazmuni bo‘yicha e’tiroz bildirishi mumkin. Bildirilgan e’tirozlar fan ekspertlari tomonidan **3 ish kuni** ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi to‘g‘risida talabgor xabardor qilinadi. Test sinovlari yakunlangandan so‘ng umumiy tartibda berilgan e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.